

## YAHUDIYLIK DINIY MANBALARIDA AYOLLAR HUQUQLARI

**Rahmonova Soliha Murodillo qizi,**  
Dinshunoslik yoʻnalishi 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Yahudiylikda ayollarning huquqlari va ularning jamiyatdagi oʻrni haqida oʻziga xos qarashlarga ega. Ushbu maqolada yahudiylik diniy manbalarida ayollarning huquqlari qanday belgilanganligi tahlil qilinadi. Tavrot va Talmud asosida ayollarning oilaviy, iqtisodiy va ijtimoiy maqomi hamda ularning meros, nikoh va taloq borasidagi huquqlari yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** ayollar, Tavrot, Talmud, nikoh, ketuba, meros huquqi, “Nashim”, Mishna, get.

Yahudiylikda ayollarning diniy va ijtimoiy hayotdagi oʻrni tarixiy, madaniy va diniy jihatlardan koʻp qatlamli boʻlib, u yahudiylikning asosiy yoʻnalishlari hamda turli davrlar va jamiyatlarga qarab oʻzgarib kelgan. Yahudiylikning asosiy diniy manbalari Tavrot va Talmudda yahudiy ayollarning muayyan huquq va majburiyatlari belgilab oʻtilgan.

Tavrot ayollarning huquqlari, masʼuliyatlari va jamiyatdagi maqomini belgilovchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ularning huquqlari koʻpincha oilaviy, iqtisodiy, va diniy kontekstda muhokama qilinadi. Yahudiylikda muqaddas birlashma hisoblangan nikohning asosiy maqsadi koʻpayishdir. Biroq, nikoh muqaddas va ruhiy birlashma, shuningdek, koʻpayish maqsadiga ega<sup>1</sup>. Yahudiylikda nikohdan maqsad avlodni davom ettirish va erkakka hamroh boʻlishdir. Xotinsiz erkak turmush qurishga daʼvat qilingan, chunki u neʼmat va barakalarsiz yashaydi<sup>2</sup>. Biroq, nikoh asosan erkak shaxsi orqali amalga oshirilishi ayollarning orqada qolishi haqidagi tasavvurni keltirib chiqaradi.

Tavrotda qizlar turmush oʻrtogʻini tanlashda erkin emasligi va ular otalarining qarorlariga boʻysunishlari haqida koʻplab bayonotlar mavjud. Masalan, Yoqubning qizi Dinani soʻraganida qizining fikrini soʻramagani<sup>3</sup> va shoh Shoulning Dovudning qizi Merabga Egamiz uchun jang qilish evaziga undan soʻramasdan turmushga chiqishga vaʼda berishi<sup>4</sup> misollari mavjud. Biroq, shunga qaramay, Zelofxad oʻz qizlariga oʻzlari yoqtirgan kishiga turmushga chiqishga ruxsat bergani qizlarga nisbatan bagʻrikenglik namunasidir.

<sup>1</sup> Asife Ünal, "Yahudilikte Evlilik Anlayışı ve Evlenme Törenleri", Uluslararası Bütün Yönleriyle Yahudilik Sempozyumu, Dinler Tarihi Araştırmaları, Ankara, 2012, 674-675.

<sup>2</sup> Adrienne Baker. "The Jewish Women in contemporary society" New York: New York University Press, 1993, -149 page.

<sup>3</sup> Ibtido, 34:14-17

<sup>4</sup> Shohlar 1, 18:17

Yahudiylikda nikoh jamiyatni saqlab qolish uchun zarurdir. Yahudiy kishi turmushga chiqmaguncha o'z diniga to'liq amal qila olmaydi, deb ishoniladi. Nikoh - bu erkak va ayolning xatti-harakatlari ilohiy qonun bilan tartibga solinadigan shartnoma. Yahudiylarning nikoh qonunlari turmush o'rtog'ining huquqlarini nikoh shartnomasi (ketubah) bilan ta'minlaydi. Ushbu shartnomaning maqsadi nikoh paytida moddiy, ijtimoiy va fiziologik huquqlarni ta'minlashdir. Bu nikoh shartnomasi orqali ajralish yoki turmush o'rtog'i vafot etgan taqdirda, ayolning moliyaviy ahvolini himoya qilishga qaratilgan. Ketubada ko'rsatilgan nikoh shartnomasi ajrashgan taqdirda ayol tomonidan talab qilinishi mumkin<sup>5</sup>. Yahudiylikda umumiy qoida sifatida, yahudiylardan bo'lmaganlarga turmushga chiqmaslik sharti bor.

Tavrotda ayollarning meros olish huquqi haqida aniq qoidalar keltirilgan. Tavrot bo'yicha, oilada erkaklar meros olishda birinchi o'rinda turadi. Tavrot ayollar uchun meros olish imkoniyatini ko'proq istisno sifatida ko'rib chiqadi. Bunday hollarda, o'g'illar yo'qligi sharti bilan ayollarga meros huquqi beriladi. Tavrotning Sonlar kitobida Zalofxodning qizlari haqidagi voqeada ayollarning meros olish huquqi tasdiqlangan<sup>6</sup>. Agar o'g'il farzandlar bo'lmasa, qizlar otasining mulkini meros qilib olishadi. Zalofxodning o'g'illari bo'lmagan. Ushbu voqea asosida, agar oilada o'g'il bo'lmasa, meros qizlarga berilishi qonunlashtirildi. Ayollar meros huquqining shartlari quyidagicha: Ayollar faqat o'g'illar bo'lmagan taqdirda meros olishi mumkin. Qizlar merosni saqlab qolish uchun oilaning yaqin qarindoshiga turmushga chiqishi kerak edi. Bu mulkning oilaviy nasl chizig'ida qolishini ta'minlash uchun qilingan<sup>7</sup>.

Tavrot beva ayollarni to'g'ridan-to'g'ri meros olish huquqi bilan ta'minlamaydi. Lekin beva qolgan ayolning ta'minoti quyidagicha amalga oshiriladi: Levirat nikohi (yibbum)ga ko'ra, agar ayolning eri vafot etsa va ular farzandsiz bo'lsa, ayol erining akasi bilan turmush qurishi kerak edi. Bu nikoh orqali ayolga iqtisodiy ta'minot kafolatlangan. Nikoh shartlariga ko'ra, er o'z xotinining moddiy ta'minotini kafolatlashga majburdir<sup>8</sup>. Erkak o'z xotiniga nisbatan uch asosiy majburiyatni bajarishi kerak: moddiy ta'minot; kiyim va boshpanani ta'minlash; nikoh huquqlarini hurmat qilish.

Yahudiylikda ayolning moddiy ta'minoti diniy majburiyat sifatida ko'riladi va uning oilaviy hayotdagi maqomini himoya qilishga qaratilgan. Shu sababli, ayol jamiyatda moliyaviy jihatdan mustahkam huquqlarga ega bo'lishi uchun diniy huquqiy tizimda aniq qoidalar ishlab chiqilgan. Taloq masalasida erkak ustunlikka ega bo'lsa-

<sup>5</sup> Adrienne Baker, "The Jewish Women in contemporary society" New York: New York University Press, 1993, -147 page.

<sup>6</sup> Sonlar, 27:1-11

<sup>7</sup> Sonlar, 36:6-9

<sup>8</sup> Chiqish, 21:10

da, ayollarning manfaatlarini himoya qilish qoidalari mavjud. Masalan, er taloq berishda rasmiy hujjat (get) taqdim etishi shart<sup>9</sup>.

Talmud an'anasida xotin-qizlar, ayollarning turmush tarzi, jamiyatdagi o'rni, maqomi va ayolning mavqeini tartibga soluvchi qoidalar haqidagi ma'lumotlar Mishnaning "Ayollar bo'limi" ma'nosidagi "Nashim" hamda "Nezikin", ya'ni "Zararlar bo'limi" nomli kitoblariga kiritilgan. Rabboniy adabiyoti va Talmud olimlarning fikricha, "ayol" mavzusi Talmuddagi eng keng qamrovli mavzulardan biri bo'lib, batafsil ma'lumot beradi<sup>10</sup>.

Talmudda ayollar turlicha tilga olinadi: Yaxshi va yomon xulqli ayollarning xususiyatlari zikr qilinadi ekan, yaxshi ayollar Tavrotga o'xshatilib, yomon xulqli ayollar esa do'zax kabi salbiy iboralar bilan tasvirlangan.

Talmud qonuni, ko'p hollarda, ayollarni hayotning ba'zi sohalaridan va erkaklar tomonidan har kuni bajarilishi kerak bo'lgan majburiyat va mas'uliyatlardan ozod qiladi. Biroq Talmud matnida Tavrot qoidalari asoslanib, ayollar axloqiy jihatdan qilishi kerak bo'lgan va qilmasligi kerak bo'lgan quyidagi harakatlar eslatib o'tilgan:

a. Tavrot va Talmud qoidalari binoan ayol boshini yopishi kerak:

Mishnada shunday deyilgan: "Kim taqvodor yahudiy ayol hisoblanadi? Ro'molini ochib ko'chaga chiqmagan ayol taqvodor ayoldir". Bundan tashqari, Tavrot qonunlariga ko'ra, eri tomonidan xiyonat qilishda gumon qilingan ayolga nisbatan shunday deyilgan: "Va u ayolning boshini ochadi"<sup>11</sup>. Ayol o'z savati bilan ham boshini yopishi mumkin, lekin diniy odatga ko'ra, ayol boshini savat bilan yopishdan ko'ra jiddiy ravishda yopishi kerak.

b. Ayolga erkaklar oldida har qanday tarzda ovozi ko'tarish, ayniqsa qo'shiq aytish taqiqlanadi. Ravvin Shmuel: "Ayolning ovozi avrat hisoblanadi", dedi. Matnda shunday deyilgan: "Ovozing shirin, yuzing maftunkor"<sup>12</sup>. Xuddi shunday, ravvin Sheshet shunday degan: "Hatto ayolning sochi ham avrat hisoblanadi, chunki ular: "Soching Gilad tog'idan tushgan echkilar suruviga o'xshaydi"<sup>13</sup>.

c. Yoshidan qat'i nazar, barcha ayollarga, ayniqsa begona, o'z jamoasidan bo'lmagan erkaklar bo'lgan stolda xizmat qilish qat'iyan man etiladi.

d. Og'zaki Tavrot an'alariga ko'ra, yahudiy ayol erini va uning oilasini hurmat qilishi kerak. Shu darajadagi, erini va uning oilasini hurmat qilmagan ayol yahudiylarning diniy qonunlariga rioya qilmaydigan kishi hisoblanadi:

Mishnada shunday deyilgan: "O'z erining oilasiga hurmatsizlik qilgan va uning huzurida la'natlagan ayol yahudiy ayollar amal qilishi kerak bo'lgan qonunlarni

<sup>9</sup> Qonunlar 24:1

<sup>10</sup> Arzu Cebe, "Talmud ve İsrail Hukuk Sistemindeki Yeri", Eylül, 2020 Kayseri. 148

<sup>11</sup> Mishna, 5:18

<sup>12</sup> Qo'shiqlar qo'shig'i 2:14.

<sup>13</sup> Qo'shiqlar qo'shiqlari 4:1.

buzgan bo‘ladi». Ravvin Yahuda Samuilga shunday dedi: “Erining ota-onasini bolalari oldida la’natlagan ayol yahudiylarning urf-odatlarini buzgan hisoblanadi”<sup>14</sup>.

Talmudga ko‘ra, nikohning asosiy shartlaridan biri erkak va ayol o‘rtasidagi rozilikdir. Ayolning rozilgisiz nikoh amalga oshirilmaydi<sup>15</sup>.

Ketuba nikoh shartnomasi bo‘lib, bu hujjat ayolning moliyaviy himoyasini ta’minlaydi. Agar er xotinini taloq qilsa yoki u vafot etsa, ayolga ketubada belgilangan mablag’ to‘lanadi. Er xotinini moddiy jihatdan ta’minlashi, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana bilan ta’minlashi shart<sup>16</sup>. Shuningdek, ayollar bolalarni tarbiyalash va uy xo‘jaligini yuritishda markaziy rol o‘ynaydilar.

Ortodoks yahudiylilikda ayollarga diniy ta’lim berish masalasida muayyan cheklovlar bo‘lgan. Ba’zi Talmud hukmlariga ko‘ra, ayollarga Tavrotni o‘qish tavsiya etilmagan (Sotah 21b). Ammo bu fikr har doim qat’iy bo‘lmagan va zamonaviy yo‘nalishlarda ayollar diniy bilim olish imkoniyatiga ega.

Ayollar nikohdan oldin o‘z mol-mulkklariga egalik qilish huquqiga ega. Nikohdan keyin ham ma’lum sharoitlarda mol-mulk ustidan huquqlarini saqlab qolishlari mumkin (Ketubot 83a). Talmudda taloq tashabbusi erkak tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ayol ham ba’zi hollarda taloqni talab qilish huquqiga ega (Gittin 88b).

Talmudda ayollarni hurmat qilish va ularning sha’ni uchun javobgarlik borasida ko‘plab ko‘rsatmalar mavjud. Er xotiniga nisbatan mehribon va hurmatli bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi (Yevamot 62b).

Xulosa qilib aytganda, yahudiylilikda ayollarning huquqlari ko‘plab diniy va ijtimoiy kontekstlarda belgilangan bo‘lib, yahudiylilikning asosiy manbalari – Tavrot va Talmud ayollar huquqini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayollar oilaviy hayotda va jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Tavrot va Talmud matnlar orqali ayollarga berilgan huquqlar, masalan, ta’lim olish, mulk egaligi va nikohdagi o‘rni kabi jihatlar ko‘rib chiqildi. Ushbu manbalarda ayollarga nisbatan muayyan huquqiy cheklovlar mavjud bo‘lsa-da, bu cheklovlar o‘sha davr ijtimoiy sharoitlari va patriarxal tuzum bilan chambarchas bog‘liq. Ammo vaqt o‘tishi bilan bu qarashlar yumshatilgan va modernizatsiya jarayonida yangi talqinlar yuzaga kelgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muqaddas Kitob. – T.: Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2018.
2. Asife Ünal, “Yahudilikte Evlilik Anlayışı ve Evlenme Törenleri”, Uluslararası Bütün Yönleriyle Yahudilik Sempozyumu, Dinler Tarihi Araştırmaları, Ankara, 2012, 673-693.

<sup>14</sup> Arzu Cebe, “Talmud ve İsrail Hukuk Sistemindeki Yeri”, Eylül, 2020 Kayseri. 151-153.

<sup>15</sup> Kidushin, -B 2.

<sup>16</sup> Ketubot, -B 47.

3. Adrienne Baker. “The Jewish Women in contemporary society” New York: New York University Press, 1993.
4. Arzu Cebe, “Talmud ve İsrail Hukuk Sistemindeki Yeri”, Eylül, 2020 Kayseri.
5. Prof. Dr. Mehmet Görmez. Yaşayan dünya dınları. –Ankara: “Diyanet İşleri Başkanlığı”, 2007.

